IRFAN
AKADEMIYASI
ILM · TA'LIM · TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

NOYABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON

ISLOM — EZGULIK, ILM VA TINCHLIK DINI

Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Mirzamamutova Gulyora Muzaffar qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
***E-mail**:Gulyora12@gmail.com*
Tel:+99888 9821113

https://doi.org/10.5281/zenodo.24329519

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon dinlaridan biri bo'lgan Islom dinining mohiyati, uning asosiy g'oyalari hamda insoniyat tamadduni rivojidagi o'rni atroflicha yoritilgan. Muallif "Islom" tushunchasining lug'aviy va istilohiy ma'nolarini tahlil qilib, ushbu dinning tinchlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat va bunyodkorlikka asoslanganligini ochib beradi. Maqolada musulmonlikning besh asosiy ustuni (iymon, namoz, ro'za, zakot va haj), shuningdek, Islomning muqaddas manbalari — Qur'oni Karim va Hadisi shariflarning ma'naviy-axloqiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, dinda ilm-fan va ma'rifat egallashga bo'lgan yuksak e'tibor, ota-onaga hurmat, halollik va ijtimoiy adolat kabi umuminsoniy qadriyatlarning targ'ib qilinishi alohida ta'kidlangan. Maqola keng kitobxonlar ommasi, talabalar hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzularga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Islom dini, tinchlik, ma'naviyat, Qur'oni Karim, hadis, axloq, ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, insonparvarlik.

Аннотация. В данной статье подробно освещаются сущность одной из мировых религий — Ислама, его основополагающие идеи и роль в развитии человеческой цивилизации. Автор анализирует лексическое и терминологическое значение понятия «Ислам», раскрывая его гуманистическую природу, основанную на мире, толерантности, милосердии и созидании. В работе рассматриваются пять основных столпов ислама (вера, молитва, пост, закят и хадж), а также духовно-нравственное значение священных источников — Священного Корана и Хадисов. Особое внимание

уделяется высокому статусу науки и просвещения в исламе, а также продвижению таких общечеловеческих ценностей, как уважение к родителям, честность и социальная справедливость. Статья предназначена для широкого круга читателей, студентов и всех, кто интересуется духовно-просветительской тематикой.

Ключевые слова: религия Ислам, мир, духовность, Священный Коран, хадисы, нравственность, наука и просвещение, толерантность, гуманизм.

Abstract. This article thoroughly explores the essence of Islam as one of the major world religions, highlighting its core principles and its vital role in the development of human civilization. The author analyzes the lexical and terminological meanings of the term "Islam," revealing its humanistic foundation built upon peace, tolerance, compassion, and constructive action. The paper examines the five fundamental pillars of Islam (faith, prayer, fasting, almsgiving, and pilgrimage), as well as the spiritual and moral significance of its sacred sources—the Holy Quran and the Hadiths. Furthermore, special emphasis is placed on the high regard for science and enlightenment in Islam, alongside the promotion of universal human values such as respect for parents, honesty, and social justice. The article is intended for a broad readership, students, and anyone interested in spiritual and educational topics.

Keywords: Islam, peace, spirituality, Holy Quran, Hadith, morality, science and enlightenment, tolerance, humanism.

Islom dini insoniyat tarixida juda kata ijtimoiy ,manaviy, axloqiy va madaniy ta'sir ko'rsatgan jahon dinlaridan biridir. Islom milodiy VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelgan bo'lib, qisqa mudat ichida Arabiston hududidanda keng hududga targalgan. Islomning shakllanishi tasodifiy hodisa bo'lmay, o'sha davrdagi Arabiston yarimorolining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va diniy hayotidagi murakkab jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Islom tarixini o'rganish faqatgina diniy aqidalarni bilish bilan cheklanmaydi. U o'sha davr jamiyatining tuzilishi, qabila munosabatlari, savdo yo'llari, ma'naviy qarashlari va insonning jamiyatdagi mavqeini ham tushunishga yordam beradi Islomdan oldingi Arabiston tarixiy manbalarda johiliya davri deb ataladi. Bu atama o'sha davrda mavjud bo'lgan jaholat, qabilachilik, diniy tasavvurlarning xilma-xilligi va axloqiy muammolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Islom ta'limotining asosiy manbalari, aqidaviy va axloqiy qarashlari; Islom ta'limoti o'zining mazmuni va manbalari jihatidan murakkab hamda keng qamrovli diniy-falsafiy tizimdir. Uning markazida Allohning yagonaligiga ishonish, insonning yaratilishi, hayotning ma'nosi, axloqiy javobgarlik, oxirat, yaxshilik va yomonlik, adolat va rahm-shafqat kabi masalalar turadi. Islom ta'limotining asosiy manbalari Qur'oni karim va sunnat hisoblanadi. Fiqh va aqida masalalarining rivojlanishida ijmo, qiyos va boshqa uslubiy yondashuvlar ham muhim o'rin egallagan. Qur'oni karim islom dinining eng muqaddas manbasi hisoblanadi, Musulmon e'tiqodiga ko'ra, Qur'on Allohning kalomi bo‘lib, Muhammad (s.a.v.)ga vahiy orqali nozil qilingan. Qur'on musulmonlar uchun e'tiqod, ibodat, axloq va ijtimoiy hayotga oid muhim ko‘rsatmalarni o'z ichiga oladi. Unda insonning Alloh bilan munosabati, ota-ona hurmati, yetim va kambag'allarga yordam, halollik, adolat, sabr, shukr va kechirimlilik kabi masalalar keng yoritilgan. Qur'onning muhim jihatlaridan biri uning insonni tafakkur qilishga undashidir. Unda tabiat, inson, tarix va jamiyat haqida fikr yuritishga chaqiruvchi ko‘plab mazmunlar mavjud. Shu sababli musulmon tafakkurida ilm olish va borliqni anglash masalalari juda muhim o'rin egallagan. Keyinchalik musulmon olimlarining matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, falsafa va boshqa fanlarga katta e'tibor qaratishida diniy va intellektual muhitning ham ta'siri bo'lgan.Sunnat Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va ma'qullagan ishlarini anglatadi. Hadislar esa payg'ambar faoliyati va so'zlari haqidagi rivoyatlarni o'z ichiga oladi. Hadis ilmi musulmon olimlari tomonidan juda murakkab ilmiy usullar asosida rivojlantirilgan. Roviylarning hayoti, ishonchliligi, rivoyat zanjiri va matnning xususiyatlari o‘rganilgan. Movarounnahr hududi hadis ilmi rivojida juda katta o'rin tutadi. Ayniqsa Imom Buxoriy nomi butun islom olamida mashhurdir. Uning "Al-Jome' as-Sahih" asari hadis ilmining eng mashhur manbalaridan biri hisoblanadi. Imom Termiziy, Imom Dorimiy kabi muhaddislarning ham ilmiy merosi islom madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan.

Islom ta'limotida ibodatlar ham muhim o'rin egallaydi. Namoz, ro‘za, zakot va haj kabi amallar musulmonlarning diniy hayotining asosiy ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Ularning har biri nafaqat ibodat, balki ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham talqin qilinadi. Namoz intizom va ruhiy poklanishga, ro‘za sabr va o'zini boshqarishga, zakot saxovat va ijtimoiy

mas'uliyatga, haj esa musulmonlar o'rtasidagi birlik va tenglik g'oyasiga xizmat qiladi. Islom axloqining asosiy tushunchalari orasida halollik alohida o'rin tutadi. Halol mehnat qilish, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, savdoda aldamaslik, yolg'on gapirmaslik, va'daga vafo qilish islom axloqining muhim tamoyillaridir. Insonning boshqalarga bo'lgan munosabati uning ma'naviy kamolotini belgilovchi mezonlardan biri sifatida qaraladi. Ota-onaga hurmat islom axloqining muhim qoidalaridan biridir. Farzand ota-onasiga yaxshilik qilishi, ularning mehnatini qadrlashi va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, qarindoshlik rishtalarini saqlash, qo'shnilarga yaxshilik qilish, yetim va muhtojlarga yordam berish kabi fazilatlar ham targ'ib qilinadi.

Islom falsafasining shakllanishi va musulmon mutafakkirlarining falsafiy qarashlari; Islom falsafasi musulmon jamiyatlarida shakllangan keng qamrovli falsafiy tafakkur an'analaridan biridir. Uning shakllanishi islom dini ta'limoti, qadimgi yunon falsafasi, Sharq tafakkuri va musulmon olimlarining ilmiy izlanishlari bilan bog'liq. Islom falsafasi faqat yunon falsafasining takrorlanishi emas, balki musulmon mutafakkirlari tomonidan mavjud falsafiy g'oyalarning yangi diniy va madaniy muhitda qayta talqin qilinishi natijasida vujudga kelgan mustaqil intellektual an'anadir.Islom olamida falsafiy fikrning rivojlanishiga tarjima harakati katta ta'sir ko'rsatgan. Abbosiylar davrida yunon, suryoniy, fors va boshqa tillardagi ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan. Aristotel, Aflotun, Galen va boshqa qadimgi mutafakkirlarning asarlari musulmon olimlariga ma'lum bo'ldi. Natijada mantiq, metafizika, tabiiy fanlar va axloq masalalari bo'yicha keng ilmiy munozaralar shakllandi.Musulmon falsafasining eng mashhur namoyandalaridan biri Abu Nasr Forobiydir. U Sharq falsafiy tafakkurining buyuk vakili sifatida tanilgan. Forobiy inson, jamiyat, davlat, bilim, baxt-saodat va fazilat masalalariga katta e'tibor bergan.

Ibn Sino zaruriy mavjudlik va mumkin bo'lgan mavjudlik tushunchalarini rivojlantirgan. Uning fikricha, borliqdagi narsalarning aksariyati o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi, ular mavjud bo'lishi uchun sababga muhtoj. Barcha sabablarning yakuniy asosi sifatida zaruriy mavjudlik tushunchasi ilgari suriladi. Bu masala musulmon falsafasida Alloh va borliq munosabatlarini tushuntirishda muhim falsafiy vositalardan biriga aylangan.Ibn Sino inson ruhiyati masalasiga ham katta e'tibor bergan. U insonning aqliy faoliyati, sezgi, tasavvur va

bilim hosil qilish jarayonlarini tahlil qilgan. Insonning aql orqali borliqni anglash qobiliyati uning falsafasida muhim mavzudir. Islom falsafasi rivojida Abu Homid G‘azzoliy alohida o'rin tutadi. Gazzoliy falsafiy tafakkurning ayrim yo'nalishlarini tanqid qilgan bo'lsa-da, uning o‘zi ham falsafiy usullardan keng foydalangan. U bilimning manbalari, insonning ruhiy holati, axloq, e'tiqod va shubha masalalarini chuqur o'rgangan. G'azzoliy uchun insonning haqiqiy kamoloti faqat nazariy bilim bilan emas, balki ma'naviy tarbiya va axloqiy poklanish bilan bog'liq. U inson qalbini tarbiyalashga katta e'tibor bergan. Uning tasavvuf bilan bog'liq qarashlari musulmon dunyosida ma'naviy-axloqiy tafakkurning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Islomdagi mazhablar, falsafiy-kalomiy maktablar va islom tafakkurining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni.

Islom tarixi davomida musulmon jamiyatlarida turli siyosiy, huquqiy, aqidaviy va falsafiy maktablar shakllangan. Bunday xilma-xillikning yuzaga kelishiga islomning keng hududlarga tarqalishi, turli xalqlar va madaniyatlar bilan aloqalar, siyosiy voqealar hamda diniy masalalarni turlicha talqin qilish kabi omillar ta'sir ko'rsatgan. Mazhab tushunchasi ko‘pincha diniy-huquqiy yoki aqidaviy masalalarda shakllangan ilmiy yo‘nalishni anglatadi.Sunniylik doirasida fiqhning mashhur to'rt mazhabi hanafiylik, molikiylik, shofe'iylik va hanbaliylik hisoblanadi. Ushbu mazhablar islom huquqi masalalarini talqin qilish va amaliy hayotga tatbiq etishning o‘ziga xos metodlarini ishlab chiqqanlar.Hanafiy mazhabi Abu Hanifa nomi bilan bog'liq. U Iroqdagi ilmiy muhitda shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik Markaziy Osiyo, Turkiya, Janubiy Osiyo va boshqa hududlarda keng tarqalgan. Hanafiylikning metodologiyasida Qur'on va sunnat bilan birga qiyos, ijmo va huquqiy fikrlashning boshqa usullariga ham katta ahamiyat berilgan. Hanafiy fiqhi tarixida Abu Yusuf va Muhammad Shayboniy kabi olimlarning xizmatlari juda katta bo‘lgan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham hanafiy mazhabining Markaziy Osiyo tarixidagi keng tarqalganligi qayd etiladi. Molikiy mazhabi Imom Molik ibn Anas nomi bilan bog'liq bo'lib, Madina ilmiy muhitida shakllangan. Ushbu mazhab Madina ahli amaliyotiga katta e'tibor bergan. Hozirgi kunda molikiy mazhabi asosan Shimoliy Afrika va ayrim boshqa musulmon hududlarida keng tarqalgan.Shofe'iy mazhabi Imom Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy faoliyati bilan

bog'liq. U fiqh metodologiyasini tizimlashtirishga katta hissa qo'shgan. Uning qarashlari Misr, Sharqiy Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa hududlarda keng tarqalgan.Hanbaliy mazhabi Ahmad ibn Hanbal nomi bilan bog'liq. Bu mazhab Qur'on va hadis manbalariga qat'iy tayanishga katta e'tibor beradi. Hanbaliy mazhabi tarixan Arabiston yarimorolida va ayrim boshqa hududlarda rivojlangan. Shialik esa islom tarixidagi yirik yo'nalishlardan biridir. Uning shakllanishi dastlab musulmon jamoasiga kim rahbarlik qilishi masalasi bilan bog'liq siyosiy va diniy jarayonlar bilan chambarchas aloqador bo'lgan. Shia an'anasida Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlarining diniy-siyosiy mavqei alohida ahamiyat kasb etadi. Shialikning ichida ham turli yo'nalishlar mavjud. Islom tarixidagi aqidaviy maktablardan biri moturidiylikdir. U Markaziy Osiyo, xususan Samarqand ilmiy muhitida rivojlangan Shialik esa islom tarixidagi yirik yo'nalishlardan biridir. Uning shakllanishi dastlab musulmon jamoasiga kim rahbarlik qilishi masalasi bilan bog'liq siyosiy va diniy jarayonlar bilan chambarchas aloqador bo'lgan. Shia an'anasida Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlarining diniy-siyosiy mavqei alohida ahamiyat kasb etadi. Shialikning ichida ham turli yo'nalishlar mavjud. Islom tarixidagi aqidaviy maktablardan biri moturidiylikdir. U Markaziy Osiyo, xususan Samarqand ilmiy muhitida rivojlangan. Abu Mansur Moturidiy islom aqidasini aql va naql uyg'unligi asosida tushuntirishga harakat qilgan. Uning ta'limoti Ahli sunna val jamoa doirasidagi muhim aqidaviy maktablardan biri sifatida tanilgan. Moturidiylikning shakllanishida Abu Hanifa merosi muhim o'rin tutadi. Abu Hanifaning aqidaga oid qarashlari keyinchalik Moturidiy tomonidan rivojlantirilgan va tizimlashtirilgan. Shu sababli hanafiylik va moturidiylik Markaziy Osiyo diniy tafakkurida bir-biri bilan yaqin aloqada rivojlangan. Moturidiy ta'limotining muhim jihatlaridan biri inson aqliga ijobiy munosabatdir. Inson o'z aqli yordamida ko‘plab haqiqatlarni anglay olishi mumkin, biroq vahiy ham inson uchun muhim bilim manbai hisoblanadi. Shu jihatdan moturidiylik haddan tashqari ratsionalizm bilan faqat matnga asoslangan yondashuv o'rtasida muvozanat yaratishga intilgan. Imom Moturidiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri turli aqidaviy qarashlarni ilmiy dalillar asosida tahlil qilish va Ahli sunna qarashlarini asoslashdan iborat bo'lgan. Islom falsafasi va aqidasida yaxshilik va yomonlik masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Insonning harakatlari axloqiy bahoga ega. Yaxshilik qilish, adolatni qaror toptirish va boshqalarga zarar

yetkazmaslik ma'qullanadi. Yomonlik, zulm, yolg'on, xiyonat va adolatsizlik esa qoralangan.Islomning ijtimoiy ta'limotida insonlarning o‘zaro birodarligi va tengligi g'oyasi ham mavjud. Insonning millati, qabilasi yoki boyligi uning insoniy qadrini belgilamasligi kerakligi haqidagi qarashlar musulmon axloqining muhim qismidir. Shu bilan birga, tarixiy musulmon jamiyatlarida ijtimoiy tenglik masalasi har doim bir xil darajada amalga oshmaganini tarixiy jihatdan tan olish zarur. Din ta'limoti bilan uning turli tarixiy jamiyatlarda amalda qo'llanishi o'rtasida farqlar bo‘lishi mumkin.

Qur'oni Karim va hadislarning islom dinidagi o'rni hamda ularning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati

Qur'oni Karim va hadislar islom dini ta'limotining eng muhim manbalari bo'lib, ular musulmon xalqlari ma'naviy hayotining shakllanishida nihoyatda katta o'rin egallaydi. Qur'oni Karim musulmon e'tiqodiga ko‘ra Alloh taoloning kalomi bo'lib, Muhammad payg'ambar alayhissalomga vahiy orqali nozil qilingan. Hadislar esa Muhammad payg'ambar alayhissalomning so'zlari, amallari, ma'qullagan ishlari va hayotiy faoliyatlari haqidagi rivoyatlardan tashkil topgan. Shu sababli Qur'on va hadislar musulmon insonining dunyoqarashi va e'tiqodi, axloqi, odobi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy kamolotini shakllantirishda muhim manba vazifasini bajaradi. Islom ilmiy an'anasida Qur'on asosiy manba, sunnat va hadislar esa Qur'on ta'limotini tushunish hamda amaliy hayotga tatbiq etishda muhim vosita sifatida qaraladi.Qur'oni Karimning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati, avvalo, unda insonning hayotdagi o'rni, uning Yaratuvchi, jamiyat va tabiat bilan munosabati haqida keng fikr yuritilishida namoyon bo'ladi. Qur'on insonni tafakkur qilishga, ilm olishga, yaxshilik qilishga, adolatli bo'lishga, yomonlikdan qaytishga va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his etishga undaydi.

Qur'on ta'limotida inson shunchaki biologik mavjudot emas, balki aql, iroda, qalb va ma'naviy mas'uliyatga ega bo'lgan mavjudot sifatida qaraladi. Insonning qadr-qimmati uning boyligi, mansabi yoki kelib chiqishi bilan emas, balki uning ezgu amallari, halolligi, taqvosi va insoniy fazilatlari bilan bog'lanadi.Qur'onda ilm va bilimga katta e'tibor berilishi uning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini yanada oshiradi. Islom an'anasida Muhammad payg'ambar alayhissalomga nozil bo‘lgan dastlabki vahiylarning “O'qing" mazmunidagi da'vat bilan

boshlanishi ilmning alohida qadriyat sifatida qaralganini ko‘rsatadi. Ilm insonni jaholatdan chiqaradigan, dunyoni anglashga va o'z hayotini mazmunli tashkil etishga yordam beradigan vosita sifatida talqin qilinadi. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi materiallarida ham Qur'on va hadislar insonni ilm olishga, diniy va dunyoviy bilimlarni egallashga undashi alohida qayd etilgan. Hadislarning ma'naviy ahamiyati esa Muhammad payg'ambar alayhissalomning hayotlari orqali islom ta'limotining amaliy ko'rinishini namoyon etishida ko'rinadi. Qur'onda berilgan ko'plab umumiy tamoyillar Payg'ambar sunnatlari va hadislarida hayotiy misollar orqali namoyon bo'lgan. Masalan, Qur'onda yaxshilik, adolat, ota-onaga hurmat, mehr-shafqat, halollik kabi fazilatlar targ'ib qilinsa, hadislar orqali ushbu fazilatlarning kundalik hayotda qanday namoyon bo'lishi haqida ko'plab misollar berilgan. Shu sababli hadislarni faqat tarixiy rivoyatlar sifatida emas, balki islom axloqining amaliy tajribasini o'rganish vositasi sifatida ham qarash mumkin. Qur'oni Karim va hadislarning ma'naviy mazmunini o'rganishda insonning ichki dunyosi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Insonning tashqi ko'rinishi bilan birga uning qalbi, niyati, vijdoni va ichki dunyosi ham muhim hisoblanadi. Islom axloqida yaxshi amal faqat tashqi harakat bilan emas, balki uning ortidagi niyat bilan ham bog'lanadi. Shu jihatdan Qur'on va hadislar insonni o'zini o‘zi tarbiyalashga, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishga, kamchiliklarini anglashga va ma'naviy jihatdan takomillashishga chaqiradi.Qur'on va hadislarning ma'naviy ahamiyatini o'rganishda ularning tarixiy meros sifatidagi o'mi ham muhim. Bu manbalar asrlar davomida musulmon xalqlarining ta'lim, tarbiya, adabiyot, san'at, huquq, axloq va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Ularning asosida ko'plab axloqiy risolalar, pandnoma va nasihatnomalar yaratilgan. Markaziy Osiyoda yashagan olim va mutafakkirlar Qur'on va hadislar mazmunidan ilhomlanib, inson tarbiyasi, ilm, odob va ma'naviyat haqida ko'plab asarlar yaratganlar.Qur'on va hadislarning ma'naviy ahamiyati bugungi kunda ham ilmiy va pedagogik jihatdan dolzarbdir. Zamonaviy jamiyatda texnologik taraqqiyot bilan birga axborotning haddan tashqari ko'pligi, turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi, yoshlar orasida turli axloqiy muammolarning yuzaga kelishi inson ma'naviyatiga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Bunday sharoitda Qur'on va hadislarning insonparvarlik, halollik, adolat, ilm, hurmat va mas'uliyatga oid g'oyalarini ilmiy asosda o'rganish muhim tarbiyaviy ahamiyatga

ega.

Qur'oni Karim va hadislarda axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar va komil inson masalalari Qur'oni Karim va hadislarda axloq masalasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Axloq insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini, boshqalarga bo'lgan munosabatini, o'zini tutishini va ma'naviy mezonlarini belgilovchi tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Islom ta'limotida insonning e'tiqodi bilan uning axloqi bir-biridan ajratilmaydi. Insonning yaxshi e'tiqodi uning xulq-atvorida, muomalasida, halolligida, adolatida va boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'lishi kerak.Qur'on ta'limotida yaxshilik qilish, adolatli bo'lish, ota-onaga yaxshilik, qarindoshlarni qadrlash, yetim va kambag'allarga yordam berish kabi fazilatlar alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yolg'onchilik, xiyonat, g'iybat, hasad, kibr, adolatsizlik va zulm kabi salbiy xislatlar qoralangan. Bu qarashlar insonni nafaqat diniy jihatdan, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalashga qaratilgan.Axloqiy tarbiyaning eng muhim tamoyillaridan biri halollikdir. Halollik insonning so'zida, mehnatida, savdosida, oilaviy hayotida va jamiyat bilan munosabatida namoyon bo'ladi. Halol inson boshqalarning haqqiga tajovuz qilmaydi, aldovdan foydalanmaydi va o'z manfaatini boshqalarning zarariga qondirishga intilmaydi. Qur'on va hadislar halollikni shaxsiy fazilat sifatida emas, balki jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida ham ko'rsatadi.Rostgo‘ylik ham islom axloqining asosiy tamoyillaridan biridir. Rost so'zlash insonlar o'rtasida ishonchni shakllantiradi. Ishonch mavjud bo'lmagan jamiyatda esa sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish qiyin. Shu sababli hadislar orqali rostgo'ylikning inson hayotidagi ahamiyati ko'p marotaba ta'kidlangan.Ota-onaga hurmat masalasi ham Qur'on va hadislarda keng yoritilgan. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi mehnati, oilaning jamiyatning boshlang'ich tarbiya muhiti ekanligi va farzandning ota-onaga nisbatan mas'uliyati muhim axloqiy tamoyillar sifatida ko'rsatiladi. Ota-onani hurmat qilish faqat ularga moddiy yordam berish bilan cheklanmaydi. Ularni tinglash, muomalada muloyim bo'lish, keksaygan davrida g'amxo'rlik qilish va ularning mehnatini qadrlash ham shu tarbiyaning tarkibiy qismidir.Qur'oni Karim va hadislarda estetik qarashlar ham muhim o'rin egallaydi. Estetika insonning go'zallikni his etishi, anglash va baholash qobiliyatini o'rganadi. Islom manbalarida go'zallik tushunchasi faqat tashqi ko'rinish bilan cheklanmaydi. Go'zallik

insonning qalbi, xulqi, so'zi, amali, kiyinish madaniyati, muomala odobi va atrof-muhitga munosabatida ham namoyon bo'ladi.Islom estetik qarashlarida tashqi va ichki go'zallik o'rtasidagi uyg'unlik muhim hisoblanadi. Insonning chiroyli kiyinishi, ozoda yurishi, muomalada muloyim bo'lishi yaxshi fazilat sifatida qaraladi. Biroq tashqi ko'rinish ichki axloqiy mazmundan ajralib qolmasligi kerak. Haqiqiy go'zallik insonning yaxshi xulqi va ma'naviy fazilatlari bilan uyg'unlashgandagina to'liq namoyon bo'ladi.Hadislarda yaxshi xulq inson go'zalligining muhim belgilaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi materiallarida hadislar asosida yoshlarning estetik madaniyati masalasi o'rganilar ekan, xushmuomalalik, to'g'riso'zlik, yaxshi xulq va til odobi estetik madaniyatning muhim jihatlari sifatida izohlanadi

Hulosa o’rnida shuni aytmoqchi edimki Bugungi globallashuv sharoitida Qur'oni Karim va hadislarni ilmiy, tarixiy, ma'naviy va pedagogik jihatdan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy inson juda katta hajmdagi axborot oqimi ichida yashaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va turli axborot manbalari inson dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning mustaqil fikrlash, ishonchli ma'lumotni yolg'on ma'lumotdan ajratish, ma'naviy qadriyatlarni anglash va axloqiy mas'uliyatni his etish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifaga aylanadi.Qur'on va hadislarni o'rganish yoshlarning tarixiy xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Chunki islom dini Markaziy Osiyo xalqlari tarixida katta o‘rin egallagan. Buxoro, Samarqand, Termiz, Xorazm va boshqa hududlarda islom ilmlari, hadis, fiqh, tafsir, kalom va tasavvuf rivojlangan. Ushbu tarixni bilish yoshlarning milliy va madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalarning ilmiy merosi Qur'on va hadislar asosida shakllangan ilmiy-ma'rifiy muhit bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq. Zamonaviy ta'lim jarayonida Qur'on va hadislarning ma'naviy-axloqiy mazmunini o'rganish o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Halollik, rostgo‘ylik, mehribonlik, ota-onaga hurmat, ustozni qadrlash, do'stlik, mehnatsevarlik, sabr, kechirimlilik va adolat kabi tushunchalar universal insoniy qadriyatlar sifatida turli ta'lim fanlarida tarbiyaviy mazmunda o'rganilishi mumkin.Qur'on va hadislarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishda yoshlarning

dunyoqarashi, yoshi va ta'lim darajasini hisobga olish zarur. Maktab yoshidagi bolalarga murakkab aqidaviy masalalarni chuqur nazariy shaklda berishdan ko'ra, halollik, do'stlik, hurmat, mehribonlik va mehnatsevarlik kabi umumiy axloqiy tushunchalarni sodda misollar orqali tushuntirish samaraliroq bo'lishi mumkin. Oliy ta'limda esa manbashunoslik, tarix, falsafa, dinshunoslik, axloqshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan chuqurroq tahlil qilish imkoniyati mavjud.Qur'on va hadislarni o'rganishda interfaol metodlardan ham foydalanish mumkin. Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, muayyan axloqiy tushunchalarni tahlil qilish, tarixiy vaziyatni muhokama qilish, hadisning mazmunini zamonaviy hayot bilan bog'lash va mustaqil xulosa chiqarish topshiriqlari berilishi mumkin. Bu usul o'quvchilarning faolligini oshiradi va mavzuni yodlashdan ko'ra tushunishga yordam beradi.Shunday qilib, Qur'oni Karim va hadislar musulmon xalqlari ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga, tarix, axloq, estetika, pedagogika va madaniyatni o'rganish uchun ham katta ilmiy manba hisoblanadi. Ularning mazmunida insonni bilim olishga, yaxshilik qilishga, halol va adolatli bo'lishga, ota-onani hurmat qilishga, jamiyatga foydali bo'lishga, tabiat va atrof-muhitni qadrlashga, go'zallikni anglashga va o'z ustida ishlashga undovchi ko‘plab g'oyalar mujassam. Ushbu merosni zamonaviy ilmiy metodlar asosida o‘rganish yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish, tarixiy xotirasini mustahkamlash va insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining zamonaviy tadqiqotlarida ham Qur'on, hadis va milliy-ma'naviy merosni tarbiya omili sifatida ilmiy o'rganishning dolzarbligi alohida ta'kidlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova M., Turdiyeva D., Najmiddinov J. Dinshunoslik

2.Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2024. 2. Uvatov U. Imom al-Moturidiy va uning ta'limoti. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000.

3. Mansur A. Al-Moturidiy ta'limoti. - Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 2003.

4. Abdulaziz Mansur. Aqoid matnlari. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2006.

5. Razzoqov Y. H. Hanafiy fiqhi borasidagi mo'tabar manbalar: ilmiy tahlil va tarixiy nazar. – Toshkent, 2025. ilmiy yondas

6. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri. - Toshkent: Toshkent

islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi,2018.

7. Imom Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. Odoblar xazinasi. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2020.

8. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.

9. Imom Termiziy. Sunani Termiziy. – Toshkent: Movarounnahr,2021.

10. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. Toshkent: Hilol-Nashr, 2022.